

NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK LATIFALARI MATNIDAGI  
AHAMIYATI

*Husaynova Mahliyo Ma'rufjon qizi*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida assistent-o'qituvchisi  
[dalerhusaynov7000@gmail.com](mailto:dalerhusaynov7000@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada latifalarning o'rganilishi, ahamiyati hamda lingvostilistik xususiyatlariga doir fikrlar bildirilgan. Shuningdek, o'zbek milliy latifalarida ifodalanuvchi ayrim stilistik hodisalar, neologizmlar bilan bog'liq bo'lgan so'z o'yinlari tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** latifa, so'z o'yini, neologizm, tag ma'no, pressupozitsiya.

**Annotation.** This article discusses the study of anecdotes, their importance and linguistic features. Also some stylistic phenomena expressed in Uzbek national folk songs and word games related to neologisms are studied.

**Key words:** anecdote, word play, neologisms, meaning, presupposition

**Аннотация.** В данной статье рассматривается изучение анекдотов, их значение и лингво-стилистические особенности. Также исследуются некоторые стилистические явления и словесные игры, связанные с неологизмами, выраженными в узбекских народных анекдотах.

**Ключевые слова:** анекдот, каламбур, неологизм, подтекст, пресуппозиция.

Xalq latifalari hajviy mazmundagi matn turlaridan biri bo'lganligi tufayli ko'p vaqtlardan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Xususan, o'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida R.Muqimov, Yo.Jo'rayev, H.Razzoqov, Sh.Rizo, S.Abdulla, A.Rahmat, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, B.Sarimsoqov, F.Yo'ldosheva, O.Sobirov, K.Imomov, B.Suvanqulovlar xalq latifalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarida latifaning janr xususiyatlari, ularni to'plash, tadqiq etishga doir ishlarni amalga oshirganlar

Shuningdek, rus tilshunosligida nisbatan ancha keng talqin etilgan, frantsuz tilidagi «calamo burlare» – qalam bilan, ya'ni yozib hazillashish ma'nosidagi “kalambur” atamasi bilan yuritiladigan so'z o'yinlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarda ham latifalar matniga qisman to'xtalib o'tilgan<sup>1</sup>. Bu tadqiqotlarda so'z o'yinlarining asosan hajviy-yumoristik, hazil-mutoyibaga xos qirralari ochib berilgan<sup>2</sup>. Kalamburlar – turli ma'nodagi so'zlarning ohangdoshligi va yoki shaklan o'xshashligi asosida vujudga kelgan obrazli figuralarga asoslangan so'z o'yinlari ekanligi va asosan hajviy-yumoristik, hazil-mutoyiba bo'yog'iga ega bo'lgan fikrlar bo'lib, ko'pincha latifalar matnida foydalanilishi qayd etilgan<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> <https://www.litdic.ru/kalambur/>

<sup>2</sup> Кузнецова А. Каламбур в газетном тексте. – Газета “Культура” №24 [54] 23.12.2000.

<sup>3</sup> Игнатъева Т. Языковая игра в художественной литературе. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.- Рязань, 2012.

Shuningdek, ba'zi ilmiy manbalarda yozma adabiyotdagi latifalar janriga ham to'xtalib o'tilgan.<sup>4</sup> Yuqorida aytib o'tganimizdek, latifalarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish jahon, shu jumladan rus tilshunosligi va adabiyotshunosligida bu muammoning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini keng tadqiq etilgan.

Latifalar matnida kulgi paydo qilish uchun turli xil fonetik hodisalar bilan birga, leksik vositalardan ham unumli foydalaniladi. Har bir davr tilga yangidan yangi so'zlarni kirib kelishi bilan alohida ajralib turadi. Tilning lug'at boyligidan o'rin ola boshlagan bunday lug'aviy birliklar neologizmlar – neo (yangi), logos (so'z) deb yuritiladi. Neologizmlar – o'zga tillardan so'z o'zlashtirish bo'lib, u til tarixining barcha qatlamlariga xos lingvistik hodisa hisoblanadi. Latifalar xalq og'zaki ijodining hamisha barhayot va zamona bilan hamnafas janrlaridan biri bo'lgani uchun ular matnida **neologizmlar** ham uchrab turadi. Quyidagi latifa bunga yaqqol misol bo'la oladi:

– *Bilasizmi, – debdi yangi kelin eriga. – Men ko'proq vaqtimni ijtimoiy tarmoqlar – “feysbuk”, “telegram”, “instagram”da o'tkazishni yoqtiraman.*

*Yeri uning qulog'i ostiga shapaloq qo'yib yuboribdi.*

– *Nega urasiz! – achchilanibdi kelin.*

– *Chunki men bunday tarmoqlardagi chiroyli “profil”larni ko'rganimda “layk” qo'yishni yoqtiraman, – deb javob beribdi er<sup>5</sup>.*

Latifa matnidagi feysbuk, telegram, instagram, profil, layk kabi so'zlar neologizmlar bo'lib, ular zamonaviy latifalar matnida ko'p ishlatiladi. Bunda neologizmlar orqali latifada bugungi yoshlar hayotida avj olib ketgan salbiy illatlardan biri vaqtini internet tarmoqlarida behuda o'tkazish qoralangan. Latifaning so'nggi jumlasidagi “layk” so'zida ma'noning metaforik usulda ko'chirilishi natijasida kulgili vaziyat vujudga keltirilgan.

*Kecha **Media Park**ga ishga kirish uchun sinovdan o'tdim.*

— *Xo'sh qalay bo'ldi?*

— *Rahbar menga noutbuk berib, — Shuni menga qimmat narxda sota olsang, seni ishga olaman, - dedi.*

— *Sen nima qilding?*

— *Noutbukni olib, uyga jo'navordim. Kechqurun qo'ng'iroq qilib:*

— *Noutbukni qaytar ablax, - degandi, — Besh million bo'ladi!, - dedim.*

Mazkur latifa matnida kulgi qo'zg'atuvchi birliklar bilan bir qatorda media park, noutbuk kabi neologizmlar ishtirok etgan lekin davlar, vaqtlar o'tishi bilan bu so'zlar ham eskirgan so'zlar qatoriga qo'shilishi tabiiy holdir.

*Ikkita o'zbek Fransiyaga borib **restoran**ga kiribdi.*

— *Fransuz tilini bilmaymiz-ku, qanday qilib buyurtma beramiz? - debdi biri.*

*Sherigi:*

<sup>4</sup> Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. 18-бет.

<sup>5</sup> <https://latifa.uz>

— *Shoshmay tur! Hozir boplayman, - debdi va ofisiantni chaqirib:*

— *Lya salat, lya tovuq, lya non, lya choy, - debdi. Ofisiant tez fursatda hamma aytgan narsalarni olib kelib beribdi.*

— *Ko'rdingmi! Men bo'lmasam nima qilarding?! - debdi buyurtma bergan o'zbek sherigiga va ofitsiantga:*

— *Lya rahmat! - desa, ofisiant:*

— *Lya osh bo'lsin, aka! - degan ekan.*

Mazkur latifada neologizmlar latifa matniga yangilik ruhini baxsh etadi. Ammo bu yangilik ruhi so'zlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq ijobiy hodisani emas, balki jamiyat hayotida ildiz ota boshlagan salbiy holatlarning asosiy sabablarini ochib berish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://www.litdic.ru/kalambur/>
2. Кузнецова А. Каламбур в газетном тексте. – Газета “Культура” №24 [54] 23.12.2000.
3. Игнатъева Т. Языковая игра в художественной литературе. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук.- Рязань, 2012.
4. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Т., 2017. 18-бет.
5. <https://latifa.uz>